

“MAKTABGACHA TA’LIM-KELAJAKDAGI MUVAFFAQIYAT ASOSIDIR”

Akbarova Umida Akramjanovna

Namangan shahar 4-son texnikumi o'qituvchisi

Email: uakbarova705@gmail.com

Tel: +998934952573

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'limni bolaning shaxsiy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishidagi hal qiluvchi ahamiyati tahlil qilinadi. Yuqori sifatli maktabgacha ta'lim olgan bolalar nafaqat maktabdagi, balki keyingi hayotdagi o'quv va professional muvaffaqiyatlariga tayyor bo'lishlari, jamiyatda faol fuqarolarga aylanishlari ko'rsatib berilgan.*

Аннотация: *В статье анализируется решающая роль дошкольного образования в личностном, интеллектуальном и социальном развитии ребенка. Показано, что дети, получающие качественное дошкольное образование, готовятся не только к академическим и профессиональным успехам в школе, но и к дальнейшей жизни, становясь активными гражданами общества.*

Abstrakt: *The article analyzes the crucial role of preschool education in the personal, intellectual and social development of a child. It is shown that children who receive high-quality preschool education are prepared not only for academic and professional success in school, but also for later life, and become active citizens in society.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim, intellektual qobiliyat, ta'lim-tarbiya, ijtimoiy ko'nikma, pedagog, hamkorlik, monitoring, inklyuziv ta'lim.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, интеллектуальные способности, образование, социальные навыки, учитель, сотрудничество, мониторинг, инклюзивное образование.*

Keywords: *preschool education, intellectual abilities, education, social skills, teacher, cooperation, monitoring, inclusive education.*

Maktabgacha ta'lim yosh avlodning kelajagi, jamiyat taraqqiyoti va milliy taraqqiyot poydevori hisoblanadi. Bu bosqich nafaqat bolalarni maktab ta'limiga tayyorlaydi, balki ularning shaxsiy, intellektual va ma'naviy rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim yosh avlodni tarbiyalashning "birinchi va muhim bo'g'ini" hisoblanib, o'quvchilarni har tomonlama sog'lom va barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan.[1] Maktab davrigacha bo'lgan barcha bolalar uchun sifatli ta'lim ularning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadida joriy etilgan "Ilk qadam" dasturi sohadagi asosiy islohotlardan biridir. Dasturning maqsadi hayoti davomida uzluksiz rivojlanishga qodir shaxsni shakllantirishdan iborat. Dastur bolalar rivojlanishining asosiy prinsiplari:

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

- ❖ Bolani markazga qo'yish: Har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali rivojlanishi[2]
- ❖ O'qishga qiziqish uyg'otish: Bolalarni ta'lim jarayoniga qiziqtirishga alohida e'tibor berish
- ❖ Rivojlanish markazlari: Tashkil etilgan markazlarda har bir bolaning qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ishlash
- ❖ Xalqaro tajriba: Janubiy Koreya tajribasi va eng yaxshi xalqaro amaliyot asosida ishlab chiqilgan



Bundan tashqari ushbu o'quv dastur maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik, ma'naviy ma'rifiy faoliyatlarni tashkil etishda kerakli ko'rsatmalar aks ettirilgan. Turli yosh guruhlarining individual va yosh xususiyatlaridan kelib chiqib mashg'ulot davomiyligi, tarbiyachining olib boradigan faoliyatlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Tarbiyalanuvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqib, ularni markazlarga yo'naltirish tarbiyachining muhim vazifalaridan biridir. Rivojlantirish markazlari har bir bolani nafaqat faolligini oshiradi balki, kasblarga bo'lgan qiziqishini ham oshiradi.

Mustaqil shaxs sifatida shakllanishi, muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi vaqtlarda maktabgacha ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlar joriy etilmoqda. UNICEF Microsoft bilan hamkorlikda "Learning Passport/Bolalik Akademiyasi" onlayn platformasini taqdim etgan[3]. Bu platforma pedagoglar uchun o'quv materiallaridan uzluksiz foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, ota-onalar



uchun mo'ljallangan Bebbö mobil ilovasi orqali 520,000 dan ortiq kishi erta yoshdagi bolalar parvarishi bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'lgan.



O'zbekiston Prezidentining 2019-yilgi qarori asosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilingan. Konsepsiyani amalga oshirish monitoringi olib borilib, tashkilotlar soni, bolalar soni, kadrlar salohiyati, bolalar rivojlanishi va tibbiy xizmatlar kabi ko'rsatkichlar bo'yicha tizimli kuzatuv amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim - bu mamlakatning kelajagi uchun qo'yilgan asosiy investitsiya. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, "Ilk qadam" davlat dasturi doirasidagi chora-tadbirlar, xalqaro hamkorlik va monitoring tizimlari yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan. Mazkur yo'lda qo'yilgan har bir qadam nafaqat individual bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatini ta'minlaydi, balki butun jamiyat va millat taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Bolalar hayotining ilk yillarida ularni rivojlantirish va maktabga tayyorlash" UNICEF O'zbekiston.2023.
2. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi.
3. UNICEF –har bir bola uchun 2023.
4. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 20230-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
5. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi.